

“GULISTON” ASARINING OGAHIIY TARJIMARI QO‘LYOZMA NUSXALARI QIYOSIY-MATNIY TAHLILI

Temirova Sitorabonu Shuhrat qizi,
O‘zbekiston Milliy Universiteti magistri
temirovasitorabonu453@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0000-5456-1346>

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk o‘zbek shoiri, tarixchi hamda tarjimon Muhammadrizo Ogahiyning umr so‘qmoqlari haqida qisqacha ma‘lumot berilgan hamda Sa‘diy Sheroziy “Guliston” asarining Ogahiy tomonidan amalga oshirilgan tarjima qo‘lyozma nusxalari matniy-qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Maqola yakunida qo‘lyozma nusxalarining matniy tadqiqi Ogahiyning tilshunoslik va tarjima san‘atidagi mahoratini yangi qirralarini ochib berishdagi ahamiyati haqida xulosalar keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: Ogahiy, Sa‘diy Sheroziy, “Guliston” asari, asar tarjimasi, qo‘lyozma, nusxa, bayt, masnaviy.

Аннотация. В данной статье представлены краткие сведения о жизненном пути великого узбекского поэта, историка и переводчика Мухаммадризо Агахи, а также проведён текстологический и сравнительный анализ рукописных списков перевода произведения Саади Ширази “Гулистан”, выполненного Агахи. В заключении статьи сделаны выводы о значимости текстологического исследования рукописей в раскрытии новых граней мастерства Агахи в области лингвистики и искусства перевода.

Ключевые слова: Агахи, Саади Ширази, произведение «Гулистан», перевод произведения, рукопись, копия, бейт, маснави.

Abstract. This article provides brief information about the life path of the great Uzbek poet, historian, and translator Muhammadrizo Ogahiy, and presents a textual and comparative analysis of the manuscript copies of Sa‘di Shirazi’s ‘Gulistan’ translated by Ogahiy. The article concludes with findings on the significance of the textual study of these manuscripts in revealing new facets of Ogahiy’s mastery in linguistics and the art of translation

Key words: Ogahiy, Saadi Shirazi, the work “Gulistan”, translation of the work, manuscript, copy, bayt, masnavi.

Kirish. XIX asr Xorazm adabiy muhitining yetuk vakillaridan biri – Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy (1809–1874) hisoblanadi. Uning faoliyatisiz o‘zbek adabiy va madaniy hayotini tasavvur qilish qiyin. Muhammad Rizo Ogahiy ko‘p qirrali ijodkor bo‘lib, u nafaqat nazm va tarixiy asarlar yaratuvchisi, balki yuqori darajadagi tarjimon sifatida ham faoliyat yuritgan. A.Xojaahmedov “...Muhammad Rizo Ogahiy she‘r ilmini mukammal egallagan va uni o‘z asarlariga tatbiq etib, g‘oyaviy va badiiy jihatdan betakror va bazavol obidalar yaratgan daho ijodkor edi”, - deb yozadi.[2:45] Ogahiy nazm (lirika va epik), tarjima (asosan sharq adabiyoti asarlari), tarixnavislik yo‘nalishlarida ijod qilgan va o‘ziga xos maktab yaratgan.

Adabiyotlar tahlili va metod. Ogahiy tarjima qilgan asarlarini “Faqirning turkiy til bila tarjima qilg‘an kitoblari “Ravzat us-safo”ning ikkinchi daftaridan Chahoryori izom voqeasi va uchinchi daftari va “Nodirnoma” va “Zafarnoma” va “Zabdat ut-hikoyot ” va Miftoh ut-tolibin” va “Nasihatnoma”yi Kaykovus, “Salomon va Absol”i Jomiy, “Guliston”i Sa‘diy, “Bahoriston”i Jomiy va “Ravzat us-safo”, “Nosiriy”ning bir daftari va

“Daloil ul-xayrot” sharhikim rum turkiysidin chig‘atoy tiliga o‘tkarildi va “Tazkirai Muqim xoniy” va “Taboqati Akabar shohiy” va “Haft paykar”i Nizomiy va “Hasht bihisht”i Xisraviy va “Yusuf va Zulayho”i Jomiy, “Shohu gado”i Hiloliy” deya sanab o‘tadi[4:39]. Muhammad Rizo Ogahiyning tarjima sohasidagi ishlari noyob hodisa bo‘lib, hali hech kim bu borada unchalik muvaffaqiyotga erisha olmagan edi. U tarjimalarida asarning o‘ziga xos ruhini saqlagan holda uni milliy ruhga, xalq didiga moslab tarjima qilgan. Asarlarning tarkibiga o‘zining ayrim bayt va qit‘a va masnaviylerini qo‘shib boradi.

Muhokama. Sa‘diy “Guliston” asarining Ogahiy tarjima qilgan manbalariga to‘xtaladigan bo‘lsak, O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar, G‘afur G‘ulom uy-muzeyi kutubxonasida, Xorazm Ma‘mun akademiyasi kutubxonasida bir necha nusxalari saqlanmoqda.

I.G‘.G‘ulom uy-muzeyi fondida № 4128 raqami bilan qayd etilgan nusxa 8 bobdan iborat bo‘lib, tarjimada asar matni mazmuni to‘liq saqlangan. Oltinchi betning oxiri va ettinchi sahifada mundarija joylashtirilgan.

II. O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida №899 raqami bilan qayd etilgan nusxa. Qo‘lyozma manbasining tavsifi:

Mazkur qo‘lyozma O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida № 899 raqami ostida saqlanadi. Nusxa jami 177 varaqdan iborat bo‘lib, asar 8 bobdan tashkil topgan. Tarjima jarayonida asar matnining mazmuni to‘liq saqlangan.

Qo‘lyozmaning qarluq lahjasida bitilgani turkiy til tarixini, xususan, qarluq guruhiga mansub yozma an‘analarni tadqiq etishda uning muhim manba ekanligidan dalolat beradi. Manbaning sahifalari izchil raqamlangan bo‘lib, tarjima matni 1b–177b varaqlarini to‘liq egallaydi. Har bir sahifaning 11 satrdan iboratligi nusxaning aniq reja asosida, puxta va tartibli ko‘chirilganini ko‘rsatadi. O‘lchami 13 × 20,5 sm bo‘lgan ushbu qo‘lyozma o‘rta formatli nusxalar sirasiga kirib, uning hajmi nafaqat shaxsiy mutolaa, balki ta‘limiy yoki ilmiy davralarda ham qo‘llanilgan bo‘lishi ehtimolini tasdiqlaydi. Manbada ko‘chirish vaqti hijriy 1279-yil deb ko‘rsatilgan va qo‘lyozma Eron hududida bitilgani qayd etilgan.

Qo‘lyozma xati nasta‘liq xatida qora siyohda ko‘chirilgan. Tarjimadagi hikoyat, qit‘a, masnaviy, to‘rtliklar qora siyohda, hikoyat, qit‘a, masnaviy, to‘rtlik yozuvlari esa qizil va to‘q ko‘k siyohda, avval hikoya undan so‘ng mazmunga mos qit‘a, bayt, masnaviy tartibida yozilgan. Qo‘lyozma qora siyoh tortilgan ramka ichiga yozilgan. Kitobning chekkasida muhr tushirilgan, shuningdek ramkadan tashqarida, qog‘oz chekkasida ayrim tuzatishlar mavjud. Qo‘lyozma xati tushunarli va mukammal ko‘chirilgan bo‘lib, juda yaxshi saqlangan. Qo‘lyozma varaqlarining chekkasiga ziyon yetgan, yirilgan holatlari mavjud.

Qo‘lyozmaning muqovasi to‘q jigarrang qattiq karton qog‘oz bilan ishlangan. Muqova hoshiyasiga qizil rangli mato tortilgan. Qo‘lyozmaning birinchi sahifasida unvon

mavjud. Qo‘lyozma tarkibiga kirgan hikoyalar, qit‘a, bayt, masnaviy qizil va qora siyohda nasta‘liq xatida, qit‘a, bayt, masnaviylar ikki ustun shaklda yozilgan. Qog‘ozi fabrika qog‘ozi. Shuningdek, ushbu qo‘lyozmada turli qog‘ozlardan foylanishgan. Jumlada rus fabrika qog‘ozi, Qo‘qon qog‘ozi, bundan tashqari yevropa qog‘ozi ham bor. Fabrika qog‘ozining 84b betidagi muhrda toj va qilich tasviri tushirilgan muhri mavjud, yevropa qog‘ozida esa “Paris” yozuvli muhri bor. Qo‘lyozma 177 betdan iborat.

III. O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida №7768 raqami bilan qayd etilgan nusxa.

Mazkur nusxa 140 varaqdan iborat bo‘lib, 141-betda kolofon joylashgan. Asarning tarjima matni qo‘lyozmaning 1b–141a varaqlarini to‘liq egallaydi.

Qo‘lyozma domla Abdulrazzoq tomonidan hijriy 1321-yilda ko‘chirilgan. Kolofon ma‘lumotlariga ko‘ra, ko‘chiruvchi o‘zini “faqir ul-haqir” deya ta‘riflab, an‘anaviy kamtarlik uslubiga amal qilgan. Shuningdek, u o‘z nasabini Mulla Abdulrazzoq maxdum qori ibn Mulla Abduljabbor qori eshon marhum tarzida qayd etadi. Ushbu ma‘lumot ko‘chiruvchining diniy-ilmiy muhit vakili bo‘lganini, Qur‘on qiroati va an‘anaviy diniy ta‘lim tizimi bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Kolofonda uchraydigan “G‘afurulloh tabon” iborasi duo-ma‘nosida qo‘llanilgan bo‘lib, marhum shaxsga nisbatan rahmat va mag‘firat tilash mazmunini anglatadi. Qo‘lyozmaning Sha‘bon oyida ko‘chirilgani “fi shahr-i Sha‘ban” jumlasini orqali aniq ifodalangan.

Qo‘lyozmaning o‘lchami 11 × 18,5 sm bo‘lib, u kichik formatli nusxalar turkumiga mansubdir. Bunday hajm qo‘lyozmaning kundalik foydalanish, ta‘lim yoki shaxsiy mutolaa uchun mo‘ljallangan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Mazkur qo‘lyozma XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oid qo‘lyozmachilik an‘analari, kolofon formulalari va diniy-ilmiy muhitni yorituvchi muhim manba hisoblanadi. U tarjima faoliyati, qo‘lyozma madaniyati hamda o‘sha davr ilmiy muhitini o‘rganishda asosiy birlamchi manbalardan biri sifatida tadqiqotda keng foydalanildi.

Qo‘lyozma kolofonida kotib va qo‘lyozma ko‘chirilgan sana quyidagicha berilgan:

رقم فقير دا ملا عبدالرزاق مخدوم قاري ابن دا ملا عبدالجبار قاري إشان محرومی مشرون. غفر الله تعابن. في شهر شعبان

Raqam faqirul haqirda mulla Abdulrazzoq maxdum qori ibn da mulla Abduljabbor qori eshon marhumi mashrun. G‘afurulloh tabon. Fi shahri Shabon

Qarang, 7768 inventar raqamli qo‘lyozma kolofoni

IV. O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida №9983 raqami bilan qayd etilgan nusxa;

Nusxa jami 74 varaqdan iborat bo‘lib, matn nastaliq xatida ko‘chirilgan. Asarning tarjima qismi qo‘lyozmaning 1b–74a varaqlarini to‘liq egallaydi, bu esa nusxaning mazmunan yaxlit holda saqlanganidan dalolat beradi.

Qo'lyozmada kolofon mavjud emas, shu sababli ko'chiruvchi shaxs, ko'chirilgan joy va sana kabi ma'lumotlarni aniqlash imkoniyati cheklangan. Nastaliq yozuvida ko'chirilgani mazkur nusxaning adabiy-ilmiy matnlar uchun xos bo'lgan yozuv an'anasiga mansubligini ko'rsatadi.

Qo'lyozmaning o'lchami 15 × 21 sm bo'lib, o'rta formatli nusxalar sirasiga kiradi. Bunday hajm qo'lyozmaning mutolaa va ta'lim jarayonida foydalanish uchun qulay bo'lganini taxmin qilish imkonini beradi.

V.O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida №11462 raqami bilan qayd etilgan nusxa

Nusxa jami 108 varaqdan iborat bo'lib, matn nastaliq xatida ko'chirilgan. Asarning tarjima qismi qo'lyozmaning 1b–108a varaqlarini to'liq egallaydi, bu esa nusxaning mazmunan yaxlit holda saqlanganini ko'rsatadi.

Qo'lyozmaning 109-betida kolofon mavjud bo'lib, unda ko'chiruvchi va ko'chirish sanasiga oid muhim ma'lumotlar keltirilgan. Kolofonga ko'ra, nusxa Muhammad Yoqub tomonidan milodiy 1917-yilda, ya'ni hijriy 1336-yilda ko'chirilgan. Qo'lyozmaning o'lchami 13 × 20 sm bo'lib, o'rta formatli nusxalar sirasiga kiradi. Bunday hajm qo'lyozmaning mutolaa va ta'lim jarayonida foydalanish uchun qulay bo'lganini ko'rsatadi.

Nastaliq yozuvida ko'chirilgani mazkur nusxaning adabiy va tarjima matnlari uchun xos bo'lgan yozma an'anaga mansubligini ko'rsatadi. Kolofon mavjudligi esa qo'lyozmaning manbashunoslik qiymatini yanada oshiradi, chunki u ko'chiruvchi shaxs va ko'chirish sanasini aniq belgilash imkonini beradi. Qo'lyozma kolofonida kotib va qo'lyozma ko'chirilgan sana quyidagicha berilgan:

تحت الكتاب بعون الملك الوهاب

بو کتاب مستطاب مسمى بگلستان سعدی علیه الرحمة فی فقیر حقیر

و لوران محمد یعقوب یا رب اتمام سرحدغه بتکوردی سنة ۶۳۳۱

ماه شعبان نینگ ۲۶ اینچی کونی یوم شنبه داملاملا بولداشا

Tammam al-kitob bi-avni al-maliki al-vahhob. Bu kitob mustatob musammi "Guliston" Sa'diy alayhir-rahmani faqir haqirva li-valadi Muhammad Ya'qub yo rabb itmomi sarhadig'a yetkurdi sana 1336 moh-i sha'bonning 26-inchi kuni yavm-i shanba domulloYo'ldosh

Kitob barcha ne'matlarni beruvchi Podshoh — Allohning yordami bilan tamom bo'ldi, Sa'diy rahmatlining "Guliston" deb nomlangan ushbu yoqimli kitobini kamina. Hijriy 1336-yilda, milodiy 1917 yillar, Muhammad Ya'qub yakuniga yetkazdi. Sha'bon oyining 26-kuni, shanba kuni.

VI. Xorazm Ma'mun akademiyasi kutubxonasida saqlanayotgan nusxa Qo'lyozma sharq qog'oziga ko'chirilgan, hoshiyalarda tuzatish va qo'shimchalar bor. Asar tarjimasi to'liq — 220 varoq. Asosan, she'r tarjimalarining qo'shimchalari hoshiyada berilgan. Qo'lyozmada kolofon yo'q bo'lib, hijriy 1279/1862-1863 yillar sanasi ko'rsatilgan.

Natija. Tadqiqot jarayonida № 7768 va № 899 raqamli qo‘lyozmalar bir xil asar tarjima an‘anasiga mansub bo‘lishiga qaramay, matn ichki belgilanishi, janr ko‘rsatkichlari (masnaviy, qit‘a, bayt, ruboiy, nazm) jihatlar bo‘yicha sezilarli tafovutlar mavjudligi aniqlandi. Qiyosiy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, farqlar asosan matn mazmuniga daxldor emas, balki nomlanish, tartibga solish va nusxa ko‘chirish amaliyotidagi uslubiy yondashuv bilan bog‘liq.

№ 7768 nusxada ayrim nazmiy parchalarning sahifada joylashtirilishi alohida ko‘rinishga ega. Jumladan, 7a betda masnaviy ikki qatorda ajratib berilgan bo‘lsa, № 899 nusxada ayni parcha uzluksiz ketma-ket yozuv tarzida keltiriladi. Xuddi shunday holat № 7768 nusxadagi 9a betdagi qit‘a matnida ham kuzatiladi. Bu belgi nusxa ko‘chiruvchi tomonidan matnni ko‘rkamlashtirish yoki sahifani rejalashtirish (layout) tamoyillari turlicha bo‘lganini anglatadi.

Ikki nusxada ko‘plab nazmiy birliklarning mazmuni bir xil bo‘lsa-da, ularning janriy belgilanishi mos kelmaydi. Bu holat qo‘lyozma muhitida janr terminlarining amaliy qo‘llanilishi barqaror bo‘lmaganini yoki kotiblarning tasnif mezonlari turlicha ekanini ko‘rsatadi.

№ 899 nusxaning 12b–13a betlarida mazkur to‘rtlik “qit‘a” deb qayd etilgan. № 7768 nusxaning 10b-11a betlarida esa shu nazmiy parcha “masnaviy” sifatida keltirilgan. Demak, janrni aniqlashda shakliy mezon (misra tuzilishi, qofiya tartibi) emas, balki kotibning odatiy atamaları ustuvor bo‘lgan bo‘lishi ehtimol.

№ 899 nusxaning 46a betida nazmiy birlik “ruboiy” deb ko‘rsatilgan bo‘lsa, № 7768 nusxaning 40a betida ayni matn “qit‘a” nomi bilan berilgan. Bu farq ruboiy shakliga yaqin to‘rtliklarning ayrim nusxalarda umumiyroq “qit‘a” atamasi bilan ham belgilanganini anglatadi.

II bob bo‘yicha tafovutlar:

Ikkinchi bobda janr ko‘rsatkichlari ketma-ket bir necha joyda mos kelmaydi:

- № 899: 54b — “bayt”; № 7768: 47a — “qit‘a”
- № 899: 66b — “bayt”; № 7768: 57a — “qit‘a”
- № 899: 67b — “bayt”; № 7768: 58a — “qit‘a”

Mazkur misollar shuni ko‘rsatadiki, № 899 nusxada ayrim nazmiy birliklar qisqa shaklda “bayt” sifatida ajratib berilgan, № 7768 nusxada esa ular “qit‘a” atamasi bilan umumlashtirilgan.

№ 899 nusxaning 71b betida “masnaviy” yozuvi usti o‘chirilib, uning o‘rniga “nazm” deb tuzatish kiritilgan. Bu holat matnni qayta ko‘zdan kechirish jarayoni bo‘lganini, shuningdek janr nomini umumiyroq atama bilan almashtirishga intilish mavjudligini bildiradi. Tahrir izi nusxaning ichki tahrir va sayqallash jarayonini tasdiqlovchi muhim dalildir.

№ 7768 nusxaning 109a betida siyoh to'kilgani kuzatiladi. Bu kodikologik detal qo'lyozmaning saqlanish holatini baholashda, shuningdek matn o'qilishi yoki ayrim joylarning zarar ko'rgan-ketmaganini tekshirishda e'tiborga olinadi.

Uchinchi bob doirasida ham mos kelmasliklar davom etadi:

- № 899: 80b — “masnaviy”; № 7768: 68b — “qit'a”
- № 899: 87a — “qit'a”; № 7768: 74a — “bayt”
- № 899: 91b — “bayt”; № 7768: 78b — “nazm”
- № 899: 95a — “qit'a”; № 7768: 81a — “bayt”

Bu misollar terminlarning qat'iy me'yor asosida emas, balki amaliy odat asosida qo'llanganini yanada kuchliroq tasdiqlaydi.

Keyingi bo'limlarda ham xuddi shunday nomlanish tafovutlari uchraydi:

- № 899: 121b — “bayt”; № 7768: 103a — “qit'a”
- № 899: 131a — “bayt”; № 7768: 110b — “qit'a”
- VI bob: № 899: 135a — “bayt”; № 7768: 112b — “qit'a”
- VII bob: № 899: 147b — “masnaviy”; № 7768: 120b — “bayt”

Ayniqsa VII bobdagi holat e'tiborlidir: bir xil mazmunga ega hikoyaga misol sifatida keltirilgan nazmiy parcha bir nusxada masnaviy, ikkinchisida bayt sifatida belgilangan. Bu esa matn tuzilmasini tasniflashda yondashuv turlicha bo'lganini ko'rsatadi. VII bobda yana bir farq kuzatiladi: № 899 qo'lyozmaning 154a betida qit'adan so'ng “hikoyat” sarlavhasi yozilgan. № 7768 nusxaning 125b betida esa ayni o'tish joyida “hikoyat” deb nom berilmagan, uning o'rniga qizil chiziq bilan ajratish amalga oshirilgan. Demak, № 899 nusxada bo'limlash matnli sarlavha orqali, № 7768 nusxada esa grafik ajratish vositasi bilan bajarilgan.

Shu bilan birga, nazmiy parchalar va hikoyalar mazmunining bir xil saqlanishi ushbu nusxalar umumiy tarjima matni an'anasiga mansubligini tasdiqlaydi. Demak, qo'lyozmachilik amaliyoti, kotibning tasnif usuli hamda bezak-grafik yondashuvdagi farqlar bilan izohlanadi.

Xulosa. Tadqiqot doirasida O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan № 7768, № 9983, № 899 va № 11462 raqamli qo'lyozmalar qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Ushbu nusxalar bir xil asarning tarjima an'anasiga mansub bo'lib, ularning o'zaro qiyosi asarning tarqalish geografiyasi, davriy xususiyatlari hamda qo'lyozmachilik muhitidagi farqlarni aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga Muhammad Rizo Ogahiy ijodi o'sha davrda Xorazm adabiy muhitining yuksak darajada rivojlanganini yaqqol namoyon etadi. Uning tarjimalari bugungi kunda ham ilmiy jihatdan chuqur o'rganilishi zarur bo'lgan qimmatli adabiy meros hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Саъдий Шерозий. Гулистон асарининг туркий таржимаси. ЎзР ФА ШИ-. Қўлёзма 899. – 1а-1776 ыарак.
2. Саъдий Шерозий. Гулистон асарининг туркий таржимаси. ЎзР ФА ШИ. Қўлёзма 7768. – 1а-141а ыарак.
3. Саъдий Шерозий. Гулистон асарининг туркий таржимаси. ЎзР ФА ШИ. Қўлёзма 9983/1. – 1а-746 ыарак.
4. Саъдий Шерозий. Гулистон асарининг туркий таржимаси. ЎзР ФА ШИ-И. Қўлёзма 11462. – 1а-2166 ыарак.
5. Муҳаммад Ризо Эрнийзбек ўғли Огаҳий. Асарлар. Таржималар. 6 жилдлик / Нашрга тайёрловчи С.Долимов; масъул муҳаррир Ғ.Каримов. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – 192 б.
6. Нажмиддин К., Саломов Ғ. Таржимон маҳорати. Т.: Ған, 1979.
7. Муҳаммадризо Огаҳий. Таъвиз ул-ошиқин. ЎзР ФА ШИ-. Қўлёзма 7443. – 1а-2626 ыарак.
8. Огаҳий асарларининг тавсифи. Тузувчи: Ғ. Ғанихўжаев. Тошкент, 1986.

